



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI RINOLALIYALI BOLALARNI URONAPLASTIKADAN KEYINGI KORREKSION ISHLAR

Dilshoda Majidova,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali 1-kurs magistri

MAQOLA HAQIDA
Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil
Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil
Jurnal soni: 17
Maqola raqami: 47
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1397>
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS
rinolaliya, uronoplastika, nutq korreksiyasi, logopedik mashg'ulotlar, nazallik, artikulyatsiya, nutqiy nafas, maktabgacha yosh.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi rinolaliyalı bolalarda uronoplastikadan keyingi nutqni tiklash va rivojlantirish masalalari yoritiladi. Rinolaliyaning nutqiy xususiyatlari, tug'ma tanglay nuqsonlarining ovoz, rezonans, artikulyatsiya hamda nutqiy nafasga ta'siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Uranoplastikadan keyingi davrda olib boriladigan logopedik korreksion ishlarning mazmuni, bosqichlari va asosiy yo'nalishlari keng yoritilib, ularning bolalar nutqining fonetik, fonematik va leksik-grammatik jihatlariga ta'siri asoslab beriladi. Korreksion jarayonning kompleks va tizimli tashkil etilishi nutqdagi nazallikni kamaytirish, to'g'ri artikulyatsiyani shakllantirish hamda muloqot imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Kirish. Nutq buzilishlari orasida rinolaliya alohida o'rin egallaydi. Ushbu nutq nuqsoni asosan tanglayning tug'ma yoki orttirilgan anatomik nuqsonlari bilan bog'liq bo'lib, nutqning rezonans xususiyatining buzilishi, tovushlarning burun orqali chiqishi, artikulyatsiya aniqligining pasayishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda rinolaliya nutqning barcha komponentlariga – fonetik-fonematik, leksik-grammatik va prosodik tomonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy tibbiyotda rinolaliyani davolashning asosiy jarrohlik usullaridan biri uronoplastika hisoblanadi. Uranoplastika yumshoq va qattiq tanglay nuqsonlarini tiklashga qaratilgan jarrohlik amaliyoti bo'lib, u nutq apparatining anatomik yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, faqat jarrohlik aralashuvi bolaning to'liq nutqiy rivojlanishini kafolatlamaydi. Operatsiyadan so'ng maxsus korreksion-logopedik ishlar olib borilmasa, rinolaliyaning nutqiy oqibatlarini saqlanib qolishi mumkin. Shu sababli, uronoplastikadan keyingi davrda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tizimli, bosqichma-bosqich va kompleks korreksion ishlarni tashkil etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Rinolaliya va tanglay yoriqlari bilan bog'liq nutq buzilishlarini o'rganish masalalari logopediya, maxsus pedagogika va tibbiyot fanlarining tutashgan nuqtasida keng tadqiq etilgan. Xususan, uronoplastika jarrohligi anatomik nuqsonni bartaraf etishning muhim bosqichi sifatida e'tirof etilib, operatsiyadan keyingi nutqiy reabilitatsiya masalalari alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan.

R.E.Levina, R.I.Lalaeva, G.V.Chirkina kabi olimlarning ishlarida nutq faoliyatining ijtimoiy va funksional tabiatiga e'tibor qaratilib, nutq buzilishlarining rivojlanish mexanizmlari nazariy jihatdan asoslab berilgan¹. Ayniqsa, R.E.Levina tomonidan ishlab chiqilgan nutq buzilishlarini tizimli tahlil qilish yondashuvi rinolaliyani kompleks nuqson sifatida talqin etish imkonini yaratgan².

Logopedik adabiyotlarda rinolaliya nutq apparatining anatomik yetishmovchiligi bilan bog'liq fonetik-fonematik va prosodik buzilishlar majmui sifatida tavsiflanadi. G.V.Chirkina, L.A.Volkova, N.A.Nikashina tadqiqotlarida uronoplastikadan keyin ham bolalarda burun rezonansi, artikulyatsion kamchiliklar va noto'g'ri nutq stereotiplari saqlanib qolishi ilmiy asoslangan³. Ularning fikricha, jarrohlik aralashuvi nutqni to'liq tiklash uchun yetarli bo'lmay, albatta maxsus korreksion ishlar bilan to'ldirilishi zarur.

Xorijiy tadqiqotlarda tanglay yoriqlari bo'lgan bolalarda nutqiy reabilitatsiyaning samaradorligi ko'p tarmoqli yondashuv asosida ko'rib

chiqiladi. A. Kummer, D. Peterson-Falzone, L. Trost-Cardamone ishlarida uronoplastikadan keyingi logopedik ishlar burun-halqum yopilish funksiyasini baholash, rezonansni nazorat qilish va artikulyatsiyani qayta shakllantirish bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi⁴. Tadqiqotlarda instrumental diagnostika (nazofaringoskopiya, akustik tahlil) va logopedik mashg'ulotlar integratsiyasi muhimligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbek va MDH hududidagi ilmiy ishlarda rinolaliyalı bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning yoshga xos jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda operatsiyadan keyingi erta logopedik yordam nutq stereotiplarining tezroq to'g'rilanishiga imkon berishi ilmiy jihatdan asoslangan⁵. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar tahlili uronoplastikadan keyingi korreksion ishlarni milliy til xususiyatlari, fonetik tizim va muloqot muhiti bilan uyg'unlashtirish masalasi yetarli darajada yoritilmaganini ko'rsatadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot tizimli, kompleks va funksional yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini nutq faoliyatining psixologik, fiziologik va ijtimoiy xususiyatlarini integratsiyalashgan holda o'rganish tamoyillari tashkil etadi. Rinolaliya murakkab nutq buzilishi sifatida baholanib, uning komponentlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Uranoplastikadan oldingi va keyingi nutq holatlari taqqoslanib, fonetik, prosodik va artikulyatsion o'zgarishlar aniqlashtirildi. Kuzatuv metodi orqali bolalarning tabiiy nutq faoliyati, muloqotdagi faolligi va nutqiy xulq-atvori tahlil qilindi.

Natijalar. Rinolaliya – bu nutq jarayonida ovoz va havo oqimining noto'g'ri taqsimlanishi natijasida yuzaga keladigan nutq buzilishi bo'lib, unda nutq tovushlari burun rezonansi ishtirokida talaffuz qilinadi. Ushbu holat asosan yumshoq va qattiq tanglayning anatomik yoki funksional yetishmovchiligi, burun-halqum yopilish mexanizmining to'liq ishlamasligi bilan bog'liq bo'ladi. Rinolaliya tug'ma tanglay yoriqlari, jarrohlikdan oldingi yoki keyingi holatlar, shuningdek, burun bo'shlig'idagi patologik o'zgarishlar fonida shakllanishi mumkin.

Rinolaliyalı bolalarda nutq apparati tuzilishidagi nuqsonlar tufayli tovush hosil qilish mexanizmi buziladi. Havo oqimi og'iz bo'shlig'iga yetarli yo'naltirilmagan burun bo'shlig'iga chiqib ketadi. Natijada nutqning akustik sifati o'zgaradi, tovushlar noaniq, xira va tushunarsiz

¹ Левина Р. Е. Нарушения речи у детей и пути их преодоления. – М.: Просвещение, 2005. – 256 с.; Чиркина Г. В. Ринолалия у детей: диагностика и коррекция. – М.: Академия, 2012. – 192 с.

² Левина Р. Е. Нарушения речи у детей и пути их преодоления. – М.: Просвещение, 2005. – 256 с.

³ Волкова Л. С. Логопедия: Учебник для студентов дефектологических факультетов. – М.: Владос, 2010. – 704 с.; Чиркина Г. В. Ринолалия у детей: диагностика и коррекция. – М.: Академия, 2012. – 192 с.

⁴ Karimova M. M. Rinolaliyalı bolalar nutqini korreksiyalash metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 168 b.

⁵ Mahmudov N. M. Logopediya asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 220 b.; Nurmonov A. N. Maxsus pedagogika va logopediya. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 304 b.; Karimova M. M. Rinolaliyalı bolalar nutqini korreksiyalash metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 168 b.; G'aniyeva D. R. Tug'ma tanglay nuqsonli bolalarda nutqni rivojlantirish masalalari // Defektologiya. – Toshkent, 2019. – №2. – B. 45–52.

eshitiladi. Bola nutqida noto'g'ri artikulyatsion stereotiplar shakllanib, ular uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin⁶.

Rinolaliya nutqning faqat fonetik tomonigagina emas, balki fonematik idrok, nutq nafasini boshqarish, ovoz sifati, leksik-grammatik tuzilma va nutqning ohangdorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uzoq

muddat davom etgan rinolaliya bolaning umumiy nutqiy rivojlanishining sekinlashuviga, muloqot jarayonida qiyinchiliklarga va psixologik noqulayliklarga olib keladi. Shu sababli rinolaliya murakkab, ko'p komponentli nutq buzilishi sifatida baholanadi.

Jadval 1. Rinolaliyaning nutqiy xususiyatlari

<i>Nutq komponentlari</i>	<i>Rinolaliyaga xos xususiyatlar</i>
Tovush talaffuzi (fonetik tomon)	Undosh tovushlar noaniq talaffuz qilinadi, portlovchi va sirg'aluvchi tovushlar zaif eshitiladi, tovushlar burun orqali chiqadi
Rezonans va ovoz sifati	Nutqda kuchli yoki zaif nazallik kuzatiladi, ovoz xira, bo'g'iq va bir maromda eshitiladi
Nutq nafasining holati	Nafas yuzaki bo'ladi, gap oxirigacha havo yetmaydi, nutq davomida tez-tez pauzalar paydo bo'ladi
Artikulyatsion apparat faoliyati	Yumshoq tanglay harakatchanligi past, til va lablar yetarli darajada faol emas
Fonematik idrok	Tovushlarni eshitib farqlash qiyinlashadi, o'xshash fonemalar aralashtirib yuboriladi
Leksik rivojlanish	Lug'at boyligi cheklangan, so'zlardan noto'g'ri foydalanish holatlari uchraydi
Grammatik tuzilma	Gap tuzishda xatolar, so'z shakllarini noto'g'ri qo'llash kuzatiladi
Prosodik tomon	Nutqning ohangdorligi sust, urg'u va ritm yetarli shakllanmagan
Nutqning tushunariligi	Nutq eshituvchilar uchun qiyin tushuniladi, muloqot samaradorligi pasayadi

Uranoplastikadan keyingi korreksion ishlar rinolaliyali bolalarda nutqiy va funksional kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan murakkab, izchil va uzoq muddatli jarayon hisoblanadi⁷. Jarrohlik aralashuvi tanglay nuqsonini anatomik jihatdan yopib bergani bilan, nutq avtomatik ravishda to'g'rilanib ketmaydi. Operatsiyadan keyin bolada noto'g'ri shakllangan nutq stereotiplari, burun orqali havo chiqarish odati, zaif artikulyatsiya va noto'g'ri rezonans saqlanib qoladi. Shu sababli uranoplastikadan keyingi korreksion ishlar tizimli yondashuv asosida olib borilishi zarur.

Korreksion ishlarning muhim yo'nalishlaridan biri burun-halqum yopilish mexanizmini funksional faollashtirishdir. Yumshoq tanglay harakatchanligini oshirish, halqum devorlari faoliyatini kuchaytirish orqali havo oqimining og'iz bo'shlig'iga yo'naltirilishi ta'minlanadi. Bu jarayonda maxsus logopedik mashqlar, puflash, shishirish, ovoz chiqarish mashqlari qo'llaniladi. Ushbu mashqlar tanglay mushaklarini mustahkamlash bilan birga nazallik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Nutqiy nafasni shakllantirish va boshqarishni rivojlantirish ham korreksion ishlarning muhim yo'nalishini tashkil etadi. Rinolaliyali bolalarda nutq davomida nafasni to'g'ri taqsimlash qiyinchilik tug'diradi, havo tez tugab qoladi yoki noto'g'ri chiqariladi. Shu sababli chuqur va barqaror nafas olish, nafasni nutq bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan mashqlar bajariladi. Nafasni boshqarish ovoz kuchi va nutq ravonligini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Artikulyatsion apparatni rivojlantirish uranoplastikadan keyingi logopedik ishlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Til, lab, yumshoq tanglay va pastki jag' mushaklari harakatchanligini oshirishga qaratilgan mashqlar orqali artikulyatsion aniqlik shakllantiriladi. Operatsiyagacha shakllangan noto'g'ri artikulyatsion holatlar bosqichma-bosqich to'g'rilanadi, to'g'ri harakatlar mustahkamlanadi. Bu jarayon tovushlarni to'g'ri hosil qilish uchun zarur bo'lgan fiziologik asosni yaratadi.

Tovushlarni to'g'ri qo'yish va avtomatlashtirish korreksion ishlarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Rinolaliyada ayniqsa portlovchi va sirg'aluvchi undoshlar talaffuzi buziladi. Tovushlar avval izolyatsiyada, keyinchalik bo'g'in, so'z va gap tarkibida mashq qilinadi. Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish jarayonida burun orqali havo chiqishini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Mashqlar vizual, eshituv va kinestetik nazorat asosida olib boriladi⁸.

Fonematik idrokni rivojlantirish uranoplastikadan keyingi korreksion ishlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Tovushlarni eshitib farqlash, ularning akustik belgilarini anglash va tahlil qilish

ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu ish tovushlarni adashtirib talaffuz qilish holatlarining kamayishiga va nutqning tushunariligi oshishiga yordam beradi.

Leksik-grammatik nutqni rivojlantirishga qaratilgan ishlar ham kompleks yondashuvni talab etadi. Rinolaliyali bolalarda nutqning fonetik nuqsonlari uzoq vaqt davom etgani sababli lug'at boyligi cheklangan, grammatik tuzilma yetarli darajada shakllanmagan bo'lishi mumkin. So'z boyligini kengaytirish, gap tuzish, grammatik shakllarni to'g'ri qo'llashga qaratilgan mashqlar nutqning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Prosodik komponentlarni shakllantirish korreksion ishlarning muhim jihati tashkil etadi. Nutqning ohangdorligi, urg'u, ritm va tempini rivojlantirish orqali nutq tabiiy va ifodali bo'lib boradi. Ovoz balandligini boshqarish, monotonlikni bartaraf etish, nutqni emotsional jihatdan boyitish bolalarning muloqot faolligini oshiradi.

Psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuvni ta'minlash ham uranoplastikadan keyingi korreksion ishlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Uzoq muddatli nutq nuqsoni bolada o'ziga ishonchsizlik, muloqotdan qochish, tortinchoqlik kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Logoped, psixolog va ota-onaning hamkorlikdagi faoliyati bolaning nutqiy faolligini, ijtimoiy moslashuvini va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Kuzatuvlarimiz jarayonida uranoplastikadan keyingi logopedik korreksion ishlar maktabgacha yoshdagi rinolaliyali bolalarda nutq faoliyatining turli komponentlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Korreksion ishlar tizimli va bosqichma-bosqich olib borilganda nutqdagi anatomik va funksional nomutanosibliklar asta-sekin kamayib bordi.

Kuzatuvlar natijasida bolalarda burun rezonansining pasayishi, havo oqimining og'iz bo'shlig'iga yo'naltirilishi yaxshilangani qayd etildi. Yumshoq tanglay harakatchanligini faollashtirishga qaratilgan mashqlar natijasida nazallik darajasi kamayib, nutqning akustik sifati ancha tiniqlashdi. Bu holat ayniqsa portlovchi va sirg'aluvchi undosh tovushlar talaffuzida yaqqol namoyon bo'ldi.

Nutqiy nafasni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar natijasida bolalar gapni to'liq, uzluksiz va barqaror nafas asosida talaffuz qila boshladilar. Nafas va nutq uyg'unligining yaxshilanishi nutq ravonligi va tushunariligi oshirdi. Shuningdek, ovoz kuchi va tembri barqarorlashib, ovozning bo'g'iq va xira eshitilishi kamaydi.

Artikulyatsion mashqlar tizimi til, lab va yumshoq tanglay mushaklarining faolligini oshirishga xizmat qildi. Natijada operatsiyagacha shakllangan noto'g'ri artikulyatsion stereotiplar asta-

⁶ Karimova M. M. Rinolaliyali bolalar nutqini korreksiyalash metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 168 b.

⁷ Abduqodirova Z. Sh. Uranoplastikadan keyingi davrda logopedik yordamni tashkil etish // Maxsus ta'lim muammolari. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 33–38.

⁸ Abduqodirova Z. Sh. Uranoplastikadan keyingi davrda logopedik yordamni tashkil etish // Maxsus ta'lim muammolari. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 33–38.

sekin yo'qolib, to'g'ri artikulyatsion harakatlar mustahkamlandi. Tovushlarni izolyatsiyada va nutq oqimida to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalari shakllandi.

Fonematik idrokni rivojlantirishga qaratilgan ishlar tovushlarni eshitib farqlash va nutqni anglash darajasining oshishiga olib keldi. Bu holat bolalarning muloqot jarayonida kamroq takrorlash talab qilishi, nutqiy xatolarning kamayishi bilan ifodalandi. Leksik-grammatik rivojlanish ham ijobiy tomonga o'zgardi, lug'at boyligi kengaydi, gap tuzish ko'nikmalari yaxshilandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, uranoplastikadan keyingi korreksion ishlar faqat fonetik nuqsonlarni bartaraf etish bilangina cheklanmay, bolaning umumiy nutqiy va kommunikativ rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan kompleks va tizimli yondashuv zarurligi haqidagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Uranoplastikadan keyingi korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari

Nutq nafasini rivojlantirish

Rinolaliyali bolalarda operatsiyadan keyin ham noto'g'ri nafas olish saqlanib qoladi. Shu sababli diafragmal nafasni shakllantirish muhimdir.

Mashqlar misoli:

"Shamni o'chir" – bolaning og'iz orqali sekin va kuchli puflashi;

"Pufakcha" – sovun pufakchalari yordamida nafas chiqarishni mashq qilish;

"Parvoz qilayotgan pat" – patni havoda ushlab turish.

Yumshoq tanglay harakatchanligini faollashtirish

Uranoplastikadan so'ng yumshoq tanglay yetarli harakat qilmasligi mumkin. Maxsus mashqlar orqali uning funksional faolligi oshiriladi.

Mashqlar:

esnashni taqlid qilish;

og'izni keng ochib "a—o—u" tovushlarini cho'zib aytish;

yutish harakatlarini nazoratli bajarish.

Artikulyatsion gimnastika

Artikulyatsiya apparatini (til, lab, jag') mustahkamlash nutq tovushlarining to'g'ri shakllanishi uchun asos bo'ladi.

Misollar:

"Soat" – tilni chap-o'ngga harakatlantirish;

"Ot chopmoqda" – til bilan tanglayni urish;

"Tabassum va naycha" – lab mashqlari.

Tovushlarni to'g'ri qo'yish va avtomatlashtirish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Левина Р. Е. Нарушения речи у детей и пути их преодоления. – М.: Просвещение, 2005. – 256 с.
2. Волкова Л. С. Логопедия: Учебник для студентов дефектологических факультетов. – М.: Владос, 2010. – 704 с.
3. Чиркина Г. В. Ринолалия у детей: диагностика и коррекция. – М.: Академия, 2012. – 192 с.
4. Правдина О. В. Логопедия. – М.: Просвещение, 2004. – 272 с.
5. Филичева Т. Б., Чиркина Г. В. Подготовка детей с нарушениями речи к школе. – М.: Школа-Пресс, 2007. – 192 с.
6. Peterson-Falzone S. J., Hardin-Jones M. A., Karnell M. P. Cleft Palate Speech. – 4th ed. – St. Louis: Mosby, 2010. – 456 p.
7. Kummer A. W. Cleft Palate and Craniofacial Conditions: A Comprehensive Guide to Clinical Management. – San Diego: Plural Publishing, 2014. – 512 p.

Operatsiyadan keyin ham ko'plab tovushlar noto'g'ri talaffuz qilinadi. Logoped tovushlarni quyidagi ketma-ketlikda qo'yadi:

portlovchi tovushlar (p, b, t, d);

sirg'aluvchi tovushlar (s, z, sh);

sonor tovushlar (l, r).

Amaliy misol: Masalan, [p] tovushi avval puflash mashqlari bilan mustahkamlanadi, so'ng bo'g'inlarda (pa–po–pu), keyin so'zlarda va gaplarda avtomatlashtiriladi.

Fonematik eshituvni rivojlantirish

Fonematik idrokni rivojlantirish tovushlarni farqlash va nutqni tushunishda muhimdir.

Mashqlar:

tovushlarni eshitib tanish;

minimal juftliklar bilan ishlash (pa–ba, sa–sha);

rasm asosida tovushni aniqlash.

Leksik-grammatik nutqni rivojlantirish

Rinolaliyali bolalarda lug'at boyligi va grammatik tuzilma ham cheklangan bo'lishi mumkin. Shu bois:

mavzuli suhbatlar;

hikoya tuzish;

rasmlar asosida gap tuzish ishlari olib boriladi.

Uranoplastikadan keyingi bolalarda nutqiy qiyinchiliklar psixologik muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. O'ziga ishonchsizlik, muloqotdan qochish holatlari kuzatiladi. Shu sababli logopedik ishlar ijobiy rag'batlantirish, o'yin texnologiyalari va emotsional qo'llab-quvvatlash bilan olib borilishi zarur⁹.

Xulosa. Uranoplastikadan keyingi korreksion ishlar rinolaliyali bolalarda to'laqonli nutqni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Jarrohlik aralashuvi anatomik nuqsonni bartaraf etsa-da, nutqning fonetik, prosodik va funksional jihatdan to'liq tiklanishi maxsus logopedik yordamni talab etadi. Korreksion ishlar nafas, ovoz, rezonans, artikulyatsiya, fonematik idrok va leksik-grammatik rivojlanishni qamrab olgan holda olib borilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Maktabgacha yosh davrida olib borilgan tizimli va uzluksiz logopedik mashg'ulotlar noto'g'ri nutq stereotiplarining barqarorlashib qolishining oldini oladi hamda bolaning maktab ta'limiga nutqiy jihatdan tayyor bo'lishiga zamin yaratadi. Shu bois uranoplastikadan keyingi korreksion ishlarni logoped, shifokor, psixolog va ota-onaning hamkorligida tashkil etish, individual yondashuvni ta'minlash va mashg'ulotlarni erta boshlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

8. Shprintzen R. J., Bardach J. Cleft Palate Speech Management: A Multidisciplinary Approach. – St. Louis: Mosby, 1995. – 388 p.

9. Trost-Cardamone J. E. Diagnosis of Velopharyngeal Dysfunction. – San Diego: Singular Publishing Group, 2004. – 214 p.

10. Mahmudov N. M. Logopediya asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 220 b.

11. Nurmonov A. N. Maxsus pedagogika va logopediya. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 304 b.

12. Karimova M. M. Rinolaliyali bolalar nutqini korreksiyalash metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 168 b.

13. G'aniyeva D. R. Tug'ma tanglay nuqsonli bolalarda nutqni rivojlantirish masalalari // Defektologiya. – Toshkent, 2019. – №2. – B. 45–52.

14. Abduqodirova Z. Sh. Uranoplastikadan keyingi davrda logopedik yordamni tashkil etish // Maxsus ta'lim muammolari. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 33–38.

⁹ Abduqodirova Z. Sh. Uranoplastikadan keyingi davrda logopedik yordamni tashkil etish // Maxsus ta'lim muammolari. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 33–38.